

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI (TIMI)**

**“Gidromelioratsiya” fakulteti**

**“Qishloq xo‘jaligi gidrotexnik  
melioratsiyasi” kafedrası**

**Himoyaga ruhsat berildi**

**Kafedra mudiri \_\_\_\_\_ dots.Begmatov I.A.**

**« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2013 y.**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: “Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumanida joylashgan “Tinchlik sharofati”  
fermer xo‘jaligi yerlarida suvtejamkor sug‘orish tarmoqlarini loyihalash»**

**Bajardi:**

**Dexanov F.**

**Rahbar:**

**Turabekov O.D.**

**Toshkent – 2013 y.**

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI

GIDROMELIORATSIYA fakulteti QXGM kafedrası Fermer  
xo'jaliklarining injenerlik tizimlari yo'nalishi 4 kurs 19 guruh

“TASDIQLAYMAN”  
“QXGM” kafedra mudiri  
\_\_\_\_\_ dots. Begmatov I.A.  
“ ” \_\_\_\_\_ 2012 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba Dexanov Farrux

(familiyasi, ismi, otasining ismi)

1. Bitiruv ishining mavzusi

Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanida joylashgan “Tinchlik sharofati” fermer xo'jaligi yerlarida suvtejamkor sug'orish tarmoqlarini loyihalash.

Institutning "03" dekabr 2012 yildagi 645/t-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Bitiruv ishini topshirish muddati - 15 iyun 2013 yil

3. Bitiruv ishini bajarishga doir boshlang'ich ma'lumotlar

Fermer xo'jaligi to'g'risida ma'lumatlar, xo'jalik hududinig tabiiy, iqlim, tuproq-meliorativ, gidrogiologik sharoitlari bo'yicha ma'lumot va ko'rsatkichlar.

4. Hisoblash – tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro'yhati)

1. Kirish. Mavzuning dolzarbligi, BMI maqsadi va hulosa 2. Umumiy qism – xo'jalikning tabiiy, iqlim, tuproq sharoitlari. 3. Texnik qism (xo'jalikning loyihaviy yer fondi hisobi, sug'orish usulini asoslash, qishloq xo'jalik ekinlarining sug'orish rejimini qabul qilish, sug'orish texnikasi va sug'orish texnikasi elementlarini tanlash, sug'orish tarmoqlarining hisobiy suv sarfi qiymatlarini aniqlash, sug'orish tarmoqlarining gidravlik hisobi va qirqim loyihalari, ish hajmlar hisobi, sug'orish maydonlaridagi yo'l tarmoqlari, sug'orish tarmoqlaridagi inshootlar, suv o'lchov qurilmalari). 4. GM ishlarini tashkillashtirish. 5. Xayot faoliyatining havfsizligi. 6. Tabiatni muhofaza qilish. 7. Iqtisodiy qism.

5. Chizma ishlari ro'yhati (chizmalar nomi aniq ko'rsatiladi)

1. Xo'jalikning tuproq meliorativ xaritasi

2. Xo'jalikning bosh rejasi

3. Keltirilgan gidromodul grafigi

4. GM ishlarni tashkillashtirish

5. Iqtisodiy ko'rsatkichlar

| <b>MUNDARIJA</b> |                                                                                                | <b>bet</b> |
|------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
|                  | Kirish.....                                                                                    | 5          |
| 2                | Umumiy qism.....                                                                               | 8          |
| 2.1              | Xo‘jalikning joylashgan o‘rni va reliefi.....                                                  | 8          |
| 2.2              | Iqlim sharoiti. ....                                                                           | 8          |
| 2.3              | Tuproq-meliorativ sharoiti.....                                                                | 8          |
| 2.4              | Geologik va gidrogeologik sharoiti.....                                                        | 11         |
| 2.5              | Sug‘orish manbai va xo‘jalik ichki sug‘orish tarmoqlari xolati.....                            | 11         |
| 2.6              | Xulosa .....                                                                                   | 11         |
| 3                | Texnik qism.....                                                                               | 14         |
| 3.1              | Xo‘jalikning mavjud yer fondi va uni loyiha asosida qayta hisoblash.....                       | 14         |
| 3.2              | Xo‘jalik hududini tashkil qilish va ekin dalalarini joylashtirish.....                         | 15         |
| 3.3              | Sug‘orish usuli va sug‘orish texnikasi elementlarini tanlash.....                              | 17         |
| 3.4              | Qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orish rejimini belgilash va keltirilgan gidromodul hisobi..... | 19         |
| 3.5              | Xo‘jalik sug‘orish tarmoqlarining hisobiy suv sarfi.....                                       | 23         |
| 3.6              | Novli va egiluvchan quvurli sug‘orish tarmoqlarining hisobiy suv sarflarini aniqlash.....      | 27         |
| 3.7              | Novli sug‘orish tarmoqlarining gidravlik hisobi.....                                           | 27         |
| 3.8              | Egiluvchan sug‘orish quvurining gidravlik hisobi.....                                          | 30         |
| 4                | GM ishlarini tashkil qilish.....                                                               | 35         |
| 4.1              | Ishlarni bajarish usullari.....                                                                | 35         |
| 4.2              | Ish hajmlarini aniqlash.....                                                                   | 35         |
| 4.3              | Mashina va mexanizmlarni tanlash.....                                                          | 37         |
| 4.4              | Mashinalar ish unumdorligi va ishlarni mehnat sarfini aniqlash.....                            | 40         |
| 4.5              | Novlarda sug‘orish tarmog‘ini qurishga texnologik xarita.....                                  | 47         |
| 5                | Xayot faoliyati xavfsizligi.....                                                               | 47         |
| 5.1              | Hayot faoliyat xavfsizligining nazariy asoslari.....                                           | 47         |
| 5.2              | Fuqaro muhofazasi.....                                                                         | 49         |
| 5.3              | Yong‘in xavfsiziligi. Yong‘inning sabablari va oldini olish chora-                             | 50         |

|                                                                                                                                   |    |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| tadbirlari.....                                                                                                                   |    |
| 5.4 Jarohatlanganlarda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.....                                                                     | 51 |
| 6 Tabiat muhofazasi.....                                                                                                          | 53 |
| 7 Iqtisodiy qism.....                                                                                                             | 56 |
| 7.1 Sug‘orish tarmoqlarini qurish va yerlarning meliorativ holatini<br>yahshilashga sarflanadigan kapital mablag‘ni aniqlash..... | 56 |
| 7.2 Meliorativ xarajatlar hisobi.....                                                                                             | 58 |
| 7.3 Sug‘orishga berilgan suv xajmi va meliorativ xarajatlarning ekin turlari<br>bo‘yicha taqsimlanishi.....                       | 59 |
| 8 Foydalanilgan manbalar.....                                                                                                     | 64 |
| 9 Internet ma’lumotlari.....                                                                                                      | 66 |

## **Kirish.**

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish hozirgi davrning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 28 mln gektar yer maydoni qishloq xo'jaligida foydalanish uchun birlashtirilgan. Bu maydonlardan unumli foydalanishda, avvalo o'simlik uchun kerak bo'lgan tuproqning suv – havo, ozuqa va issiqlik rejimlarini o'zlashtirish va rostlash yo'li bilan tuproqning fizik–kimyoviy xossalari, suv–tuz hamda yer usti va sizot suvlari rejimlarini yaxshilash ishlarini amalga oshirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29 oktyabr 2007 yildagi "Erlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora–tadbirlari" to'g'risidagi farmonida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati quyidagicha tavsiflangan:

– sug'oriladigan yerlarning xozirgi meliorativ holati qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini yanada o'stirishga va qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarning daromadlarini oshirishga to'g'anoq bo'lmoqda;

– hozirda sug'oriladigan yerlarning yarmidan ko'prog'ini turli darajada sho'r bosgan, ayni vaqtda fermer xo'jaliklariga qarashli sug'oriladigan yerlarning 16 % dan ortig'i qoniqarsiz holatdadir.

Sug'oriladigan maydonlarda tuproqning meliorativ holatini yaxshilash, sug'orish va zah qochirish tarmoqlarini qayta qurish bo'yicha davlat miqyosida maxsus dastur ishlab chiqilib, unda Respublikamizdagi 4270 ming gektar sug'oriladigan yerlarning 1700 ming gektaridagi sug'orish tarmoqlarini ta'mirlash va 900 ming gektar ekin maydonining meliorativ holatini yaxshilash ishlarini bajarish kechiktirib bo'lmaydigan vazifa yetib belgilangan.

Shuningdek Respublikaning Sirdaryo, Jizzah, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlaridagi sug'oriladigan maydonlarda va Amudaryoning quyi oqimida joylashgan ming kilometrdan ortiq kollektor–zovurlarni 1,8 ming km ni takomillashtirish va qayta qurish, vegetatsiya davrida ekinlarning suvga bo'lgan talabini

qoniqtirish maqsadida umumiy sigʻimi 3204 mln m<sup>3</sup> miqdorida boʻladigan yangi suv omborlarini qurish rejalashtirilgan.

“Sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash boʻyicha 2008–2012 yillarga moʻljallangan Davlat Dasturi asosida yerlarning meliorativ holatini yaxshilash boʻyicha maqsadli kompleks chora–tadbirlarini amalga oshirish orqali tuproqning unumdorligini tubdan oshirish” boʻyicha chora–tadbirlarga jami 213,4 mlrd soʻm, 142,5 mln dollar miqdorida xarajatlar rejalashtirilgan va ular quyidagilardan iborat:

- suv isteʼmolchilar uyushmalarining, fermer xoʻjaliklarining moddiy–texnika bazasini mustaxkamlash, jumladan ularga 130 ta ekskavatorlar, 30 ta buldozerlar va melioratsiya mashinalarini yetkazib berish;

- 12234 km magistral, tumanlararo va xoʻjaliklararo kollektorlarni va 2828 km yopiq yotiq va tik drenajlarni qurish, qayta tiklash va taʼmirlash;

- 3006 ta tik drenajlarni va sugʻorish quduqlarini tiklash, taʼmirlash va qayta qurish;

- irrigatsiya inshootlari (kanallar, suv omborlari, gidrotexnika inshootlari)ni taʼmirlash;

- 68 ta meliorativ nasos stantsiyalarini 458 ta kuzatish quduqlarini, 4472 ta gidrotexnik qurilmalarni, 5250 ta gidropostlari, 2710 ta nasos agregatlarini taʼmirlash va qayta tiklash;

- 4639 km kanallari, 305 mln m<sup>3</sup> hajmli suv omborlarini qurish va qayta taʼmirlash;

- 2009–2020 yillarga moʻljallangan tomchilab sugʻorish dasturini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish.

Suv va yer resurslarining samaradorligini oshirish uchun dehqonchilik, gidrotexnika va melioratsiya sohasidagi ilm–fan yutuqlarini qoʻllash orqali sugʻoriladigan yerlarni kompleks qayta tuzish, gidromeliorativ tizimlarini taqomillashtirish tomoilarini ishlab chiqish va zamonaviy, unumli va tejamkor sugʻorima dehqonchilik tizimini yaratish zarur.

Sugʻoriladigan yerlarni qayta tuzish va sugʻorish tarmoqlarini taqomillashtirishda suv isrofini kamaytiradigan sugʻorish usuli va texnikasini amaliyotda qullash, suv

resurslarini 30 % gacha yer resurslarini 10 % gacha tejashga, hosildorlikni 40% gacha oshirishga imkon yaratadi.

Sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya obʼektlari tarmogini rivojlantirish, suv resurslaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, buning asosida qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishining barqaror ishlashini taʼminlash, yerlarning unumdorligini oshirish hamda qishloq xoʻjaligi ekinlari hosildorligini koʻpaytirish maqsadida 2013 yil 19 aprel 2013 — 2017 yillar davrida “Sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 1958-sonli Prezident qarori qabul qilindi.

Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamgarmasi mablaglari hisobidan moliyalashtiriladigan 2013 — 2017 yillar davrida sugʻoriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash boʻyicha ishlarning prognoz parametrlari quyidagicha:

- 3852 km magistral, tumanlararo va xoʻjaliklararo kollektorlarni va 1257 km yopiq-yotiq va tik drenajlarni qurish, qayta ishlash va taʼmirlash;
- 75507 km ochiq kollektor va drenaj sistemalarini taʼmirlash va ishga tushirish;
- Shu tadbirlarni bajarishga 836 ta melioratsiya mashina va mexanizmlarni lizing evaziga etkazib berish;
- 2103 km kanallarni, 96 ta gidrotexnik inshootlarni, 40 mln.m<sup>3</sup> suv omborlarini qurish va qayta taʼmirlash;
- 558571 km sugʻorish tarmoqlarini qayta tiklash, 174110 ta gidrotexnik qurilmalarni, 11533 ta nasos stantsiyalarini, 252650 ta kuzatish quduqlarini va gidropostlarni qayta tiklash va ishga tushirish;
- 25000 ra qishloq xoʻjaligi tovar ishlab chiqaruvchilarning kredit mablagʻlari va oʻz mablagʻlari hisobidan 2013 — 2017 yillar davrida tomchilatib sugʻorish tizimini joriy etish.

Yugoridagi maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, ushbu bitiruv malakaviy ishda Surxondaryo viloyati Yangiyoʻl tumanidagi “Tinchlik sharofati” fermer xoʻjaligi yerlarining meliorativ holatini yaxshilash tadbirlari ishlab chiqildi.

## **2 Umumiy qism**

### **2.1 Fermer xo‘jaligining joylashgan o‘rni va rel’efi.**

“Tinchlik sharofati” fermer xo‘jaligi yerlari Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumani hududida joylashgan. Fermer xo‘jaligi yerlari shimoliy sharq tomonidan yugori Toshkent kanali Janubiy tomonidan Achchisoy zovur bilan chegaralangan. Xo‘jalikning janubiy g‘arbiy tomonidan “Bo‘z-suv” kanali o‘tadi. Xo‘jalik yerlari tekisliklardan iborat, ba’zi joylari to‘lqinsimon rel’efga ega. yerlarning umumiy nishabligi  $0,006 \div 0,0038$  atrofida o‘zgaradi.


### **2.2 Iqlim sharoiti.**

Fermer xo‘jaligi joylashgan hududning iqlimi kontinental va vegetatsiya davrining uzunligi bilan ifodalanadi. Vegetatsiya davri 230–238 kun davom etadi. Vegetatsiya davridagi ijobiy harorat yig‘indisi  $2000^{\circ}\text{S}$  dan kam bo‘lmaydi. Yog‘ingarchilik miqdori 332 mm–ni tashkil qilib, eng ko‘p miqdori qish va erta bohorda kuzatiladi. Eng sovuq havo harorati qish oylarida kuzatiladi. Yanvar oyining o‘rtacha harorati  $-2,5^{\circ}\text{S}$  –ni eng issiq oy iyul oyining o‘rtacha harorati  $+26,8^{\circ}\text{S}$  – ni tashkil qiladi.

Yugori havo harorati ko‘p miqdorda bug‘lanishni, vujudga keltiradi va namlik tanqisligiga sabab bo‘ladi. Chirchiq daryosi basseyni bo‘yicha bir yildagi o‘rtacha bug‘lanish miqdori 800 – 900 mm gacha yetadi.

### **2.3 Tuproq meliorativ sharoiti.**

Fermer xo‘jaligi yerlari joylashgan Yangiyo‘l tumani hududi Chirchiq daryosi o‘ng qirg‘og‘idagi tekisliklardan tashkil topgan. Bu yerlarda tuproq hosil bo‘lishi sizot suvlarining oqimining tekislik bo‘ylab oqishi natijasida shakllangan va kengligi 0,5 km dan 2 km –gacha cho‘zilgan va asosan qumloq tuproqlardan iborat. Sug‘oriladigan yerlar daryoning 2–chi terassasida joylashgan. Bu yerlarda bo‘z va o‘tloqi bo‘z tuproqlar tashkil topgan.



Tuproq tavsif nomasi.

| Tuproq turi                    | Tuproq ayirmalari raqami | Mexanik tarkibi      |                       |                      | Sho'rlanish darajasi | Sizot suvlar chuqurligi, m | Banitet balli | Maydoni, ga |
|--------------------------------|--------------------------|----------------------|-----------------------|----------------------|----------------------|----------------------------|---------------|-------------|
|                                |                          | 0-60                 | 60-150                | 150-300              |                      |                            |               |             |
| Bo'z va o'tloqi bo'z tuproqlar | 1                        | engil va o'rta qumoq | qumoq va qumloq       | o'rta qumloq         | sho'rlanmagan        | 2,2-2,6                    | 107,5         | 75          |
|                                | 2                        | o'rta qumoq          | qumloq va o'rta qumoq | o'rta qumoq va qumli |                      | 2,0-2,2                    | 32,3          | 73          |

2.3.1-chizma.Xo'jalik tuproq-meliorativ xaritasi.

2.2.1–jadval Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumani hududning iqlim ko‘rsatkichlari.

| Ko‘rsatkichlar                   | O Y L A R |      |     |      |      |      |      |      |      |      |     |     | Yillik |
|----------------------------------|-----------|------|-----|------|------|------|------|------|------|------|-----|-----|--------|
|                                  | 1         | 2    | 3   | 4    | 5    | 6    | 7    | 8    | 9    | 10   | 11  | 12  |        |
| Havoning harorati S <sup>0</sup> | –2,5      | –1,4 | 7,8 | 14,7 | 20,2 | 24,7 | 26,3 | 21,6 | 19,2 | 12,6 | 6,6 | 1,8 |        |
| Havoning nisbiy namligi %        | 63        | 61   | 65  | 48   | 42   | 35   | 33   | 32   | 33   | 40   | 58  | 65  |        |
| Namgarchilik tanqisligi mm       | 2,0       | 3,0  | 4,0 | 8,0  | 12,6 | 20   | 23,3 | 20,3 | 13,7 | 8,0  | 4,0 | 2,3 |        |
| Yog‘ingarchilik, mm              | 49        | 41   | 48  | 43   | 18   | 4    | 1    | 1    | 16   | 23   | 40  | 48  | 332    |

Er osti suvlari sathi 2,5–2,7 m chuqurlikda joylashgan va kam minerallasgan. yer osti suvlari yaxshi chiqib ketish oqimiga ega. Sugʻoriladigan boʻz oʻtloqi tuproqlar yugori mahsuldorlikga ega. Namligi yaxshi va shoʻrlanmagan boʻlgani uchun bu yerlarda sugʻorishga kamroq suv sarflab, paxta bugʻdoy makkajoʻxori, sabzavot va boshqa qishloq xoʻjalik ekinlaridan yaxshi hosil yetishtirish mumkin.

#### **2.4 Geologik va gidrogeologik sharoit.**

Xoʻjalik joylashgan hududning gidrogeologik sharoiti, yerning geologik tuzulishi va iqlim sharoitiga bogʻliq. Togʻli va qiya tekisliklardagi yerning yoriqlaridan paydo boʻlgan chuchuk yer osti suvlari toshloq, qumoq va qumli qatlamlarda joylashgan boʻlib chuqurligi 2,0–2,3 m.ni minerallanishi 0,5 g/l yaʼni chuchuk suvlar. Meliorativ sharoitga qarab yer osti suvlari tabiiy oqimga ega. Hududning injenerlik – geologik sharoiti gidrotexnika qurulishi uchun qulay hisoblanadi. Soz qumli tuproqli yerlarda inshootlarni loyihalash va qurishda bunday tuproqlarning (1,5–2,0 m) choʻkishini hisobga olish zarur.

#### **2.5 Sugʻorish manbai va xoʻjalik ichki sugʻorish tarmoqlari xolati .**

Boʻzsuv irrigatsiya tizimiga qarashli fermer xoʻjaliklari yerlari Chirchiq daryolari terassasida joylashgan. Tizimning asosiy suv manbasi Boʻzsuv kanali hisoblanadi. “Tinchlik sharofati” fermer xoʻjaligi xoʻjalik ichki sugʻorish tarmoqlari asosan yer uzanli ariqlardan iborat. Ariqlar yoʻnalishi egri–bugri koʻndalang kesimli oʻlchamlari texnik talablarga javob bermaydi. Ekin dalalariga sugʻorish suvini muvaqqat va oʻqariqlar yordamida egatlarga tarqatiladi natijada sugʻorish suvining koʻp qismi tuproq pastki qatlamlariga sizilib oʻtadi, sizot suvlari sathining koʻtarilishiga va yerning botqoqlanishiga olib keladi. Bundan tashqari oʻqariqlardan egatlarga suvning notekis taqsimlanishini katta nishablikka ega boʻlgan yerlarda irrigatsion eroziya taʼsirida tuproq ustki qatlamlarining yuvilib ketishiga olib keladi.

#### **2.6 Xulosa**

Yugorida keltirilgan “Tinchlik sharoati” fermer xoʻjaligi joylashgan hududning tabiiy iqlim, gidrogeologik va tuproq meliorativ sharoitlarini taxlil qilish shuni koʻrsatadiki hududning iqlimi keskin kontinental, foydali haroratlar yigʻindisi yugori,

vegetatsiya davri uzoq davom etadi. Sugʻorish suvi bilan yetarlicha taʼminlanganligi, bu yerlarda paxta, bugʻdoy, sabzavot va boshqa ekinlarni yetishtirishga toʻliq imkon beradi. Lekin mavjud xolatda fermer xoʻjaligi ekin dalalari shakllari toʻgʻri boʻlmagan, maydonlari katta (35–40 ga) sugʻorish dalalaridan iborat. Bunday maydonlarni talab darajasida tekislash ishlarining qiyinligi sababli tuproqni bir tekisda namlantirish taʼminlanmaydi. Xoʻjalikda mavjud xoʻjalik ichki sugʻorish tarmoqlari asosan yer oʻzanli ariqlar boʻlib ularning yon tomonlari yemirilgan, asosiga loyqa choʻkib suv oʻtkazuvchanlik qobiliyati kamaygan. Xoʻjalikdagi bunday xolatlar yerdan foydalanish koeffitsiyenti va xoʻjalik ichki sugʻorish tizimi FIK ning kamayib ketishiga olib keladi. Xoʻjalik ichki sugʻorish tarmoqlarida sugʻorishga olingan suvning koʻp qismi (25–30%) ariq oʻzanlaridan filtratsiyaga, sarflanib sizot suvlari sathining koʻtarilib ketishiga va yerlarning meliorativ xolatining yomonlashuviga olib kelmoqda. Bunday xolatlarning oldini olish uchun xamda xoʻjalik ichki sugʻorish tizimining FIK–ni va xoʻjalikda EFKni, shuningdek qishloq xoʻjalik ekinlarini sugʻorish sifati, ish unumdorligini oshirish maqsadida “Tinchlik sharofati” fermer xoʻjaligi yerlarida suvtejamkor sugʻorish tarmoqlarini loyihalaymiz.

## TOPSHIRIQ

1. Fermer xo'jaligining yer maydoni nettosi, ga 127,2

2. Yo'nalishi paxtachilik-g'allachilik

3. Ekinlar joylashuvi, % g'o'za - 66,7

kuzgi bug'doy – 25

sabzavot – 8,3

Takroriy ekin (makkajo'xori) – 12,5

4. Hosildorlik, ts/ga g'o'za - 24

kuzgi bug'doy – 52,1

sabzavot – 256,9

Takroriy ekin (makkajo'xori) – 48,5

Rahbar, imzo Turabekov O.D.

### 3 Texnik qism.

#### 3.1 Xo‘jalikning mavjud yer fondi va uni loyiha asosida qayta hisoblash.

Yangiyo‘l tumani sug‘orish tarmoqlari joylashish haritasidan belgilangan chegara bo‘yicha kvadrat setkalari yordamida “Tinchlik sharofati” fermer xo‘jaligining umumiy yer maydonini aniqlaymiz:

$$\Omega_{um} = 139,8\text{ga}$$

Haritadagi shartli belgilardan foydalanib, fermer xo‘jaligi hududida yaroqsiz yerlar mavjud yoki yo‘qligini aniqlaymiz. Mazkur fermer xo‘jaligi hududida bunday yerlar yo‘q bo‘lganligi sababli “*brutto*” yer maydoni umumiy yer maydoniga teng bo‘ladi.

$$\omega_{xo'j}^{br} = \Omega_{um} - \omega_{yaroqsiz} = 139,8 - 0 = 139,8\text{ga}$$

Brutto yer maydoniga sug‘orish tarmoqlari, zovur–kollektorlar, yo‘llar daraxtzorlar, aholi yashash joylari, dala shiyponlari bilan band bo‘lgan daxlsiz yerlar maydoni ham kiradi.

Bevosita qishloq xo‘jaligi ekinlari yetishtiriladigan, ya’ni sug‘oriladigan “*netto*” yer maydoni qo‘yidagicha aniqlanadi:

$$\omega_{ho'j}^{net} = \omega_{ho'j}^{br} \cdot EFK$$

bu yerda: EFK – yerdan foydalanish koeffitsiyenti.

Bu koeffitsiyent qiymati xo‘jalikning yer maydoniga va yerlar yuzasi rel’efiga bog‘liq qabul qilinadi. Mazkur xo‘jalikning yer fondi va rel’efiga bog‘liq EFK–ning loyihaviy qiymati  $EFK_{loyiha} = 0,91$  deb qabul qilamiz (3.3 jadval, 46–bet Практические занятия по СХГМ). Qabul qilingan EFK qiymatiga asosan fermer xo‘jaligi “*netto*” yer maydoni aniqlaymiz:

$$\omega_{ho'j}^{net} = 139,8 \cdot 0,91 = 127,2 \text{ ga}$$

BMI topshirig‘idagi xo‘jalikda yetishtiriladigan ekin turlari va ularning tarkibiga asosan hamda tuproqlarning mahsuldorligini oshirish maqsadida xo‘jalikdagi sug‘oriladigan netto maydonning 66,7%–ga g‘o‘za, 25% –ga kuzgi bug‘doy, 8,3% –ga sabzavot va bug‘doydan bo‘shagan 12,5% maydonda takroriy ekin (makkajo‘xori) yetishtirishni rejalashtiramiz:

1) g‘o‘za ekiladigan maydonni aniqlaymiz:

$$\omega_{g'o'za}^{net} = \frac{\omega_{xo'j}^{net} \cdot \alpha_{g'o'za}}{100} = \frac{127,2 \cdot 66,7}{100} = 84,8 \text{ ga}$$

2) kuzgi bug‘doy ekiladigan maydon:

$$\omega_{bug'}^{net} = \frac{\omega_{xo'j}^{net} \cdot \alpha_{bug'}}{100} = \frac{127,2 \cdot 25}{100} = 31,8 \text{ ga}$$

3) sabzavot ekinlari maydoni:

$$\omega_{sabz}^{net} = \frac{\omega_{xo'j}^{net} \cdot \alpha_{sabz}}{100} = \frac{127,2 \cdot 8,3}{100} = 10,6 \text{ ga}$$

4) takroriy ekin ya’ni makkajo‘xori yetishtiriladigan maydonni aniqlaymiz:

$$\omega_{makka}^{net} = \frac{\omega_{xo'j}^{net} \cdot \alpha_{makka}}{100} = \frac{127,2 \cdot 12,5}{100} = 15,9 \text{ ga}$$


Yuqoridagi hisob ishlari natijasiga ko‘ra xo‘jalikning ekinlar bo‘yicha yer fondi qaydnomasini tuzamiz.

3.1.1 – jadval. Xo‘jalikning ekinlar bo‘yicha yer fondi qaydnomasi.

| T/r | Qishloq xo‘jalik ekinlarining nomi | “netto” maydoni, ga | % hisobida |
|-----|------------------------------------|---------------------|------------|
| 1   | G‘o‘za                             | 84,8                | 66,7       |
| 2   | Kuzgi bug‘doy                      | 31,8                | 25         |
| 3   | Sabzavot                           | 10,6                | 8,3        |
|     | “netto” maydon                     | 127,2               | 100        |
| 4   | Takroriy ekin (makkajo‘xori)       | 15,9                | 12,5       |

### 3.2 Xo‘jalik hududini tashkil qilish va ekin dalalarini joylashtirish.

Xo‘jalikda qishloq – xo‘jalik ekinlari yetishtiriladigan netto yer maydoni 127,2 gektarni tashkil qiladi. Asosiy ekinlarni yetishtirish uchun har qaysisining maydoni 21,2 gektar oralig‘ida bo‘lgan 6–ta ekin dalalarini tashkillashtiramiz. Xo‘jalikda yerdan foydalanish koeffitsiyentini loyihadagi 0,91 ga yetkazish uchun dalalarni to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida loyihalaymiz. Bu esa mexanizmlarning ish unumdorligini oshiradi va ekinlarni bir tekisda sug‘orishga imkon beradi. Xo‘jalikdagi ekin dalalariga suvni yetkazib berish uchun xo‘jalik ichki, ya’ni fermer kanalini (1–1K), har qaysi ekin dalasiga suvni yetkazib berish uchun aloxida shohariq kanallarini loyihalaymiz.



### Shartli belgilar

- |  |                       |  |                                       |
|--|-----------------------|--|---------------------------------------|
|  | - Ferma nov kanali    |  | - Xo'jalik chegarasi                  |
|  | - Shohariq nov kanali |  | - Gorizontallar                       |
|  | - Egiluvchan quvur    |  | - Suv berish inshooti                 |
|  | - Sug'orish egatlari  |  | - Dimlash inshooti                    |
|  | - Suv yig'uvchi zovur |  | - Suv o'lchagich                      |
|  | - Ochiq zovur         |  | - Suv tushirgich                      |
|  | - Dala yo'li          |  | - Navbatlab ekish dala tartibi raqami |
|  | - Ixota daraxtlari    |  | - Netto maydoni                       |
|  |                       |  | - Suv tushirgich inshootlari          |

M 1:10000

3.2.1 - chizma. Xo'jalik bosh rejasi.

Xo‘jalik ichki sug‘orish tarmoqlarini loyihalashda ularning qo‘yidagi talablarni qanoatlantirishga erishish kerak:

- sug‘orish rejasiga muvofiq ekinlarga suvni o‘z vaqtida yetkazib berish;
- FIK va EFK ning eng yuqori qiymatlariga erishishni;
- hamma qishloq xo‘jalik mashinalarining yuqori unum bilan ishlatilishini ;
- sug‘orishda yuqori ish unumdorligini;
- mexnat va hududni to‘g‘ri tashkil qilishni ;
- kanal va inshootlardan samarali foydalanishni.

Shuning uchun sug‘orish tarmoqlarining rejada joylashishi shunday bo‘lishi kerakki, bunda xo‘jalik ichki tarmog‘i, ya’ni fermer kanali xo‘jalikdagi butun sug‘oriladigan maydonlarni suv bilan ta’minlasin. Bundan tashqari, xo‘jalik ichki tarmoqlaridagi suv o‘lchash inshootlari xo‘jalikka va sug‘orish dalalariga beriladigan suv miqdorini o‘lchash imkoniyatini ta’minlash, tuproq yuvilishini oldini olish, sug‘orish tarmog‘iga rejali suv berishni, sug‘oriladigan maydonga suvning o‘zi oqishini ta’minlash uchun, yerning eng baland nuqtalaridan o‘tishi, berilgan sharoitda eng kam uzunlikda va to‘g‘ri yo‘nalishda bo‘lishi kerak.

Yuqoridagi tavsiya va shartlarga amal qilgan xolda fermer xo‘jaligi yerlari rel’efi, tuproq–meliorativ va xo‘jalik sharoitlarini e’tiborga olib, ushbu xo‘jalikda sug‘orish tarmoqlarini, ya’ni sug‘orish suvini tejaydigan foydali ish koeffitsiyenti (FIK) yuqori bo‘lgan sug‘orish tizimini loyihalash zarur deb hisoblaymiz.

### **3.3 Sug‘orish usuli va sug‘orish texnikasi elementlarini tanlash.**

Xo‘jalikning iqlim, tuproq–meliorativ, gidrogeologik, xo‘jalik sharoitlarida, xo‘jalikda yetishtiriladigan ekinlardan mo‘ljallangan hosilni olish uchun sun’iy sug‘orish jarayonini amalga oshirish zarur.

“Tinchlik sharofati” fermer xo‘jaligi yerlarining o‘rtacha nishabligi  $i_{or} = 0,00085 \div 0,0024$  atrofida o‘zgaradi va shamolning o‘rtacha tezligi 1,2 m/s ni tashkil qiladi. Tuproqlari o‘rta va og‘ir qumoq, va engil qumoq qatlamlardan tashkil topgan bo‘lib, kam sho‘rlangan, sizot suvlar sathining joylashish chuqurligi 2,0–2,5 m atrofida o‘zgaradi va kam minerallangan. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni hisobga olgan

xolda fermer xo‘jaligida yetishtiriladigan ekinlarni sug‘orish uchun Respublikamizda eng ko‘p tarqalgan oddiy va arzon sug‘orish usuli hisoblangan yer ustidan egatlab sug‘orish usulini qo‘llaymiz. Xo‘jalik sug‘oriladigan yerlariga suv yetkazib beruvchi xo‘jalik ichki tarmog‘i va sug‘orish dalalariga xizmat qiladigan shohariqlarni novli kanallardan, egatlarga suv tarqatib berish uchun ko‘chma egiluvchan yumshoq quvurlarni loyihalaymiz. Bunday sug‘orish tizimida sug‘orish suvi xo‘jalik ichki tarmog‘idan shoharik nov kanaliga, undan suv tushirgich inshootlari yoki ko‘chma sifonlar yordamida egiluvchan yumshoq quvurlarga olinadi va quvurdagi naychalardan suv egatlarga beriladi. Tuproqning egat boshidan ohirigacha birtekis namlanishini ta‘minlash maqsadida egiluvchan quvurning ko‘ndalang kesim o‘lchami va suv sarfiga bog‘liq quvur ma‘lum nishablikda egatlar boshiga yotqiziladi (MCHJ O‘zGIP tavsiyasi).

Egiluvchan quvurlar har–xil meliorativ matodan tayyorlangan bo‘lib, ko‘chma bo‘ladi. Quvurga suv shohariq nov kanalidan suv tushirgichlar yoki sifonlar yordamida olinadi. Egatlarga suv taqsimlash uchun egiluvchan suv berish quvurlarning texnik ko‘rsatkichlariga asoslanib (3.12 jadval, 79–bet, “Qishloq xo‘jaligida sug‘orish melioratsiyasi” o‘quv darslik) TP–120, KOP–200 ko‘chma suv berish quvurlaridan birini, sug‘orish texnikasi elementlari o‘lcham va miqdorlariga bog‘liq qabul qilinadi.

Egatlab sug‘orish texnikasi elementlariga egat uzunligi ( $l_e$ ), egat suv sarfi ( $q_e$ ), egat yo‘nalishi bo‘yicha nishablik ( $i_e$ ) va egatlararo masofa ( $\alpha_e$ ) kiradi. Sug‘orish texnikasi elementlari o‘lchamlari, xo‘jalikdagi sug‘oriladigan yerlarning o‘rtacha nishabligi, tuproqning suv o‘tkazuvchanlik xususiyatiga va dala yuzasining tekisligiga bog‘liq tanlanadi.

“Tinchlik sharofati” fermer xo‘jaligi sug‘oriladigan yerlarining o‘rtacha nishabligi  $i_{or} = 0,00085 \div 0,0024$  atrofida, tuproqlari mexanik tarkibi o‘rta qumoq va engil qumloq tuproqlar suv o‘tkazuvchanligi kuchaygan va o‘rtacha.

Ushbu sharoit uchun egatlab sug‘orish texnikasi elementlari o‘lchamlarini N.T. Laktaev tavsiyasiga ko‘ra (3.6 –jadval, 70–bet, “Qishloq xo‘jaligida sug‘orish melioratsiyasi”) oldindan qo‘yidagicha belgilaymiz:

- 1) egat uzunligi –  $l_e = 265$  m

- 2) egat suv sarfi –  $q_e = 0,30$  l/s
- 3) egatlararo masofa –  $\alpha_e = 0,9$  m
- 4) egat yoʻnalishi boʻyicha nishablik –  $i_e = 0,0022$

Egatlarga suv berishda sugʻorish tarmoqlarining boʻylama sxema boʻyicha joylashtirish usulini qoʻllaymiz. Boʻylama suv berish tuzilmasida egatning nishabligi sugʻorish maydonining nishabligiga teng boʻlib, egatlar sugʻorish tarmogʻidagi shohariq kanaliga va yer gorizontallariga nisbatan tik joylashadi. Namunaviy sugʻorish dalasida sugʻorish tarmogʻi, egiluvchan quvur va egatlarning joylashish sxemasi 3.2.1 chizmada berilgan.

### **3.4 Qishloq xoʻjalik ekinlarini sugʻorish rejimini belgilash va keltirilgan gidromodul hisobi.**

Fermer xoʻjaligining iqtisodiy samaradorligini oshirish va qishloq xoʻjalik ekinlaridan yuqori hosil olish, oʻsimliklar uchun zarur boʻlgan asosiy omillarga, yaʼni yorugʻlikga, issiqlikga, ozuqa ekinlariga, havo va suvga boʻlgan talab qondirilishi zarur. Oʻsimlik uchun asosiy suv tuproqdagi namlikdir.

Qurgʻoqchilik iqlim mintaqalarida yogʻingarchilik miqdori zarur boʻlgan tuproq namligini hosil qilmaydi. Shuning uchun oʻsimliklarni suv bilan taʼminlash katta ahamiyat kasb etadi. Oʻsimliklarning fiziologik xususiyatlariga ildiz sistemasining rivojlanish qatlamiga va yer usti aʼzolariga bogʻliq ravishda turli xil rivojlanish fazalarida tuproqning har xil namlanishini talab etadi va bir xil miqdorda suv sarflanmaydi. Shuning uchun ekinlarni sugʻorishning eng maqbul sugʻorish rejimini qoʻllash zarur. Maqbul sugʻorish rejimini belgilash boʻyicha ilmiy tekshirish va loyihalash institutlari va Respublikadagi suv xoʻjaligi tashkilotlari shugʻullanadi. Ular tomonidan Oʻzbekiston Resublikasining turli xil tabiiy iqlim zonalarida uchun maqbul sugʻorish rejimi tavsiya qilingan. Bu hududlar tuproqlarning mexanik tarkibiga, sizot suvlar sathining joylashish chuqurligiga va sizot suvlarining taʼminlanishi sharoitlariga qarab gidromodul tumanlariga ajratilgan. Gidromodul tumanlashtirish qoʻyidagi omillarga bogʻliq:

- a) sugʻorish maydonining joylashishi;

b) tumanning iqlim sharoitlari;

v) tumanning suv bilan ta'minlanganligi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan omillar bo'yicha "Tinchlik sharofati" fermer xo'jaligi joylashgan o'rniga ko'ra markaziy (M-II) kenglik mintasidagi efemer dasht poyasiga (V), qo'ng'ir va tipik qo'ng'ir tuproq shakllangan tuproq-meliorativ oblastiga, sizot suvlarining ta'minlanish sharoitiga qarab "b" – sizot suvlari sohasiga mansubdir. Tuproq hosil qiluvchi jinsning mexanik tarkibiga (o'rta qumoq va g'lli qatlam) va sizot suvlarining joylashish chuqurligiga (2,0÷2,5m) bog'liq V gidromodul tumaniga qarashli. Demak fermer xo'jaligi yerlari M-II-V-b-V-gidromodul tumaniga kiradi. Ushbu gidromodul tumani uchun qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish rejimini "MCHJ UzGIP", kuzgi bug'doy ekinini sug'orish rejimini "G'allachilik IICHB" tavsiyalariga ko'ra qabul qilamiz (3.4.1 – jadval)

Sug'orish gidromoduli qiymatlari qo'yidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$q_s = \frac{m}{86,4 \cdot t}; \text{ l/s ga}$$

bu yerda:  $m$  – qishloq xo'jalik ekinlarining suv berish me'yori, l/s;

$t$  – suv berish davri, kecha–kunduz.

Keltirilgan gidromodul qiymatlari qo'yidagicha aniqlanadi;

$$\bar{q}_k = \frac{\alpha}{100} \cdot q_s \text{ l/s ga}$$


bu yerda:  $\alpha$  –har bir ekinning xo'jalikda egallagan maydoni foizi.

3.4.1 jadval. “Tinchlik sharofati” fermer xo‘jaligida yetishtiriladigan qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orish rejimi M–II–V–b–V gidromodul tumani.

| T/r | Ekinlar nomi                          | Sug‘orish me‘yori,<br>m <sup>3</sup> /ga | Sug‘orish davri | Ko‘rsatkichlar        | O y l a r |      |      |      |      |      |      |   |      |
|-----|---------------------------------------|------------------------------------------|-----------------|-----------------------|-----------|------|------|------|------|------|------|---|------|
|     |                                       |                                          |                 |                       | III       | IV   | V    | VI   | VII  | VIII | IX   | X | XI   |
| 1   | G‘o‘za<br>$\alpha = 66,7\%$           | 4600                                     | 06.06–10.09     | $\beta, \%$           |           |      |      | 21   | 39   | 33   | 7    |   |      |
|     |                                       |                                          |                 | m, m <sup>3</sup> /ga |           |      |      | 966  | 1794 | 1518 | 322  |   |      |
|     |                                       |                                          |                 | t, kun                |           |      |      | 25   | 31   | 31   | 10   |   |      |
|     |                                       |                                          |                 | q <sub>s</sub> l/s ga |           |      |      | 0,45 | 0,67 | 0,57 | 0,37 |   |      |
|     |                                       |                                          |                 | $\bar{q}_K$ l/c ga    |           |      |      | 0,30 | 0,45 | 0,38 | 0,25 |   |      |
| 2   | Kuzgi<br>bug‘doy<br>$\alpha = 35,2\%$ | 3700                                     | 20.09–15.05     | $\beta, \%$           | 18        | 25   | 20   | –    | –    | –    | 19   | – | 18   |
|     |                                       |                                          |                 | m, m <sup>3</sup> /ga | 522       | 725  | 580  | –    | –    | –    | 551  | – | 522  |
|     |                                       |                                          |                 | t, kun                | 31        | 30   | 20   | –    | –    | –    | 16   | – | 30   |
|     |                                       |                                          |                 | q <sub>s</sub> l/s ga | 0,19      | 0,28 | 0,34 | –    | –    | –    | 0,40 | – | 0,20 |
|     |                                       |                                          |                 | $\bar{q}_K$ l/c ga    | 0,05      | 0,07 | 0,09 | –    | –    | –    | 0,10 | – | 0,05 |
| 3   | Sabzavot<br>$\alpha = 8,3\%$          | 6000                                     | 16.05–<br>30.09 | $\beta, \%$           |           |      | 5    | 20   | 31   | 27   | 17   |   |      |
|     |                                       |                                          |                 | m, m <sup>3</sup> /ga |           |      | 300  | 1200 | 1860 | 1620 | 1020 |   |      |

|   |                                               |      |             |                    |      |      |      |      |             |      |      |   |      |
|---|-----------------------------------------------|------|-------------|--------------------|------|------|------|------|-------------|------|------|---|------|
|   |                                               |      |             | t, kun             |      |      | 15   | 30   | 31          | 31   | 30   |   |      |
|   |                                               |      |             | $q_s$ l/s ga       |      |      | 0,23 | 0,46 | 0,69        | 0,60 | 0,39 |   |      |
|   |                                               |      |             | $\bar{q}_K$ l/c ga |      |      | 0,02 | 0,04 | 0,06        | 0,05 | 0,03 |   |      |
| 4 | Takroriy ekin<br>(makka)<br>$\alpha = 12,5\%$ | 4100 | 01.06–26.08 | $\beta, \%$        |      |      |      | 32   | 42          | 26   |      |   |      |
|   |                                               |      |             | $m, m^3/ga$        |      |      |      | 1312 | 1722        | 1066 |      |   |      |
|   |                                               |      |             | t, kun             |      |      |      | 30   | 31          | 26   |      |   |      |
|   |                                               |      |             | $q_s$ l/s ga       |      |      |      | 0,51 | 0,64        | 0,47 |      |   |      |
|   |                                               |      |             | $\bar{q}_K$ l/c ga |      |      |      | 0,06 | 0,08        | 0,06 |      |   |      |
|   |                                               |      |             | $q_{e.k}$          | 0,05 | 0,07 | 0,11 | 0,40 | <u>0,59</u> | 0,49 | 0,38 | – | 0,05 |

3.4.1–jadvaldagi keltirilgan gidromodul hisobiy qiymatlarining vegetatsiya davomida o‘zgarish grafigini chizamiz va grafikdagi uninig eng katta ( $q_{e.k}$ ) qiymatini aniqlaymiz (3.4.1 chizma).



3.4.1 chizma. Keltirilgan gidromodul grafigi.

### 3.5 Xo‘jalik sug‘orish tarmoqlarining hisobiy suv sarfi.

Xo‘jalikning yer fondi hisobiga asosan va keltirilgan gidromodul grafigidagi uning eng katta qiymati ( $\bar{q}_{\max} = 0,59$  l/s ga ) bo‘yicha xo‘jalikdagi ekinlarning eng ko‘p suv iste’moli davri uchun belgilangan suv sarfi qiymatini aniqlaymiz:

$$Q_{xo'j}^{netto} = \varpi_{xo'j}^{netto} \cdot \bar{q}_{\max}^{his} = 127,2 \cdot 0,59 = 75 \text{ l/s}$$

bu yerda:  $\varpi_{xo'j}^{netto}$  – xo‘jalikning netto maydoni, ga;

$\bar{q}_{\max}^{his}$  – keltirilgan gidromodulning eng katta qiymati, l/s ga.

Xo‘jalikdagi ekinlarning minimal suv iste’moli davri uchun suv sarfi qiymatini qo‘yidagicha aniqlaymiz:

$$Q_{xo'j}^{\min} = \varpi_{xo'j}^{netto} \cdot \bar{q}_{\min}^{his} = 127,2 \cdot 0,236 = 30 \text{ l/s}$$

bu yerda:  $\bar{q}_{\min}^{his} = 0,4 \cdot \bar{q}_{e.q}^{his} = 0,4 \cdot 0,59 = 0,236$  l/s ga

Fermer xo‘jaligining qishlok xo‘jalik ekinlari ekiladigan “netto” yer maydoni 127,2 gektar bo‘lib, har qaysining maydoni 21,2 gektardan 6–ta sug‘orish dalalariga

bo‘lingan va xo‘jalik ichki tarmog‘i, ya’ni fermer kanalidan (1–1K) sug‘oriladi (xo‘jalik bosh rejasi chizmasi).

Fermer kanali xo‘jalikdagi doimiy suv bilan ta’minlanadigan bitta maydonga xizmat qiladi va fermer kanalining “netto” suv sarfi qo‘yidagicha bo‘ladi:

$$Q_{f/k}^{netto} = \varpi_{f/x}^{netto} \cdot \bar{q}_{max}^{his} = 127,2 \cdot 0,59 = 75 \text{ l/s}$$

bu yerda:  $\varpi_{f/k}^{netto}$  – fermer kanaliga xizmat qiladigan maydon, ga;

$\bar{q}_{max}^{his}$  – fermer kanali xizmat qiladigan maydoni uchun tuzilgan keltirilgan gidromodul grafigidagi eng katta qiymat, l/s ga (3.4.1– chizma )

Ekinlarning eng kam suv istemolidagi fermer kanalining suv sarfi:

$$Q_{f/k}^{min} = \varpi_{f/k}^{netto} \cdot \bar{q}_{min} = 127,2 \cdot 0,236 = 30 \text{ l/c}$$

